

## SIVILIZATSIYANING PAYDO BO’LISHI VA RIVOJLANISHI

Rahmonova Ruxshona

O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
Dinshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

[rahmonovasoliha32@gmail.com](mailto:rahmonovasoliha32@gmail.com)

+998900817212

Ilm-fan, urbanizatsiya, madaniyat, bilim va boshqalar insoniyat taraqqiyoti va hayotining turli jahbalarida yuksalishi bilan bog‘liq. Chunki odamlarning bir joyga to‘planishi va u yerda qaror qilishi zararni daf etishda hamkorlik qilish, qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo va turli san’at va ilmlar orqali tirikchilik vositalarini to‘plash va ularni o‘z darajalariga yetguncha ilgarilab borishi tushiniladi.

Demak, sivilizatsiya deganda xalqning urbanizatsiya, ilm-fan, bilim, san’at va shu kabilar nuqtai nazaridan o‘zining intellektual va aqliy faoliyati jahbalarida qay darajada erishganligi, hayotning uchish-qo‘nish yo‘laklarida va so‘qmoqlarida uning turli sharoitlari va imkoniyatlariga amal qiladigan maqsad sari ilgarilab borishi nazarda tutiladi.

Yoki alloma Ibn Xaldun aytganidek: *Sivilizatsiya-urbanizatsiya sharoitidagi zaruratga ko‘ra odatiy sharoitlarning ko‘payishi hamda turmush tarzi<sup>6</sup> tafovuti bilan o‘zgarib turadigan o‘sishi va xalqlarning kamlik va ko‘plikdagi farqi cheksiz tavovutning ortishidir.<sup>7</sup>*

Uill Dyurant buni quyidagicha ta’riflagan: *Sivilizatsiya- insonga madaniy ishlab chiqarishni oshirishga yordam beradigan ijtimoiy tizim.*<sup>8</sup>

Ushbu ta’riflar bir-biriga yaqin va bu biroz mulohaza bilan namoyon bo‘ladi.

Insoniyatning ijtimoiylashuvi zaruriy holatdir. Inson o‘zi uchun yuksalish vositalarini ta’minalash va o‘z ehtiyojlarini<sup>9</sup> qondirishga qodir emas. Inson o‘zining hayot uchun kerakli vositalarini boshqa insonlarning yordami bilan talab qiladi. Xuddi shunday, u faqat o‘zining vatandoshlarining yordami bilan o‘zini himoya qila oladi. Qadimgi donishmandlar: “Inson tabiatan madaniyatlidir<sup>10</sup>”, agar ijtimoiylashib , boshqalar bilan hamkorlik qilsa, hayotini va o‘zini himoya qilish masalasida ustunlikka erishgan bo‘lar edi. Agar u bunga ishonch hosil qilsa, sivilizatsiya boshlanadi, o’sib ravnaq topadi va o‘z chegarasiga yetguncha yo‘lida davom etadi.

Mark Uill Dyurant deydi: “Sivilizatsiya notinchlik va xavotirlar tugaydigan joyda boshlanadi. Chunki inson qo‘rquvdan omon bo‘lsa, uning qalbida intilish motivlari, yaratuvchanlik va ijodkorlik omillari ozodlikka chiqadi, shunda tabiiy rag‘batlar uni hayotni anglash, uning gullab-yashnashi yo‘lidan borishga undashdan to‘xtamaydi.”<sup>11</sup>

<sup>6</sup> Hayotdagi qulayliklar, turmush tarzining yengilligi.

<sup>7</sup> Ibn Xaldunning “Davlatlar bo‘yicha shaharlardagi sivilizatsiya” bobidagi muqaddimasiga qarang.

<sup>8</sup> “Sivilizatsiya tarixiga kirish” 1-qism 3-bet. Sivilizatsiya ma’nosi keyingi bobda oydinroq bo‘ladi.

<sup>9</sup> Qondirilishi kerak bo‘lgan barcha ehtiyojlar

<sup>10</sup> Ibn Xaldunning “Inson taraqqiyoti” (sivilizatsiyasi) bobidagi muqaddimasiga qarang.

<sup>11</sup> “Sivilizatsiya tarixiga kirish” 1-qism, 4-bet.



Garchi inson zotining ijtimoiylashuvi zaruriy va tabiiy bo'lsa-da, inson avlodlari hayotga qarashlaridagi<sup>12</sup> farqiga ko'ra farqlanadilar. Ularning ba'zilari qo'y, sigir va tuya kabi hayvonlarni boqishni o'z zimmalariga olmoqchi bo'lib, o'zlari yashaydigan yerlardan hayvonlar uchun yaylov<sup>13</sup> va maydonlarni izlashga majbur bo'lgan cho'l ahlidir. Ularning ehtiyojlari va turmush tarzlaridagi ijtimoiylashuvi va hamkorlik qilishlari hayotni saqlaydigan darajada bo'ladi va bundan boshqa narsaga qodir bo'limganliklari sababli ularning yashash tarzi, odatlari va tabiatlari ming yillar oldin qanday bo'lsa, shunday bo'lib qoladi.<sup>14</sup>

Ular orasida ekin ekish, yetishtirish, parvarish qilish, savdo-sotiqlar, dehqonchilikdan foydalanadiganlar va shahar ahlining hokimlari bor.<sup>15</sup> Darhaqiqat, sivilizatsiya dehqon kulbasida boshlanadi, lekin u faqat shaharlarda gullab-yashnaydi.<sup>16</sup> Shunday qilib, badaviy odamlar yashash sharoitlarini zarur narsalar bilan to'ldirishga majbur bo'lgan odamlar ekanliklari ko'rindi.

Shaharliklar esa zaruriy narsaga qanoat qilmay, zeb-ziynat va dabdabaga erishuvchilardir. Shunday qilib, shahar aholisi oldinga harakatlanish, yuksalish, taraqqiyot va urbanizatsiya va hokazo turli faoliyat turlari yo'lida yuradi. Bu ular uchun shaharlarining markazlari, tirikchilik manbalari, jamiyatlari va sharoitlariga qarab farq qiladi. Sivilizatsiya uni tashkil etuvchi elementlarga ega va uni shakllantiruvchi va uning sur'atini rag'batlantiradigan omillarga hamda uni sekinlashtiradigan yoki yo'liga to'sqinlik qiluvchi omillarga ega.

Doktor Uill Dyurant boshchiligidagi ba'zi faylasuflar sivilizatsiyaning quyidagi to'rtta tarkibini ko'rsatishadi:

1. Iqtisodiy resurslar;
2. Siyosiy tizimlar;
3. Xalq an'analari;
4. Ilm-fan va san'at bilan mashg'ul bo'lish.

Sivilizatsiyaning shakllanish omillari juda ko'p bo'lib, uning eng muhimlari quyidagilar:

1. Geografik omillar;
2. Iqtisodiy omillar;
3. Madaniy omillar;
4. Diniy omillar;
5. Axloqiy omillar;
6. Psixologik omillar;

<sup>12</sup> Insonlarning yashash usullari va ta'llimotlari.

<sup>13</sup> Ertalab chorvalar o'tlash uchun qo'yib yuboriladigan joy

<sup>14</sup> Doktor Gustav Le Bon "Arablar sivilizatsiyasi" 78-bet.

<sup>15</sup> Uill Dyurant shunday deydi: Madaniyat paydo bo'lishining birinchi ko'rinishi qishloq xo'jaligidir; Zero, inson tuprog'ini o'stiruvchi, bir kunlik rizqini saqlaydigan joyga joylashmas ekan, o'zining madaniyati uchun joy yoki asos topolmaydi. Bu tor osoyishtalik doirasida - men bu bilan suv va oziq-ovqat manbasining ishonchli ta'minotini nazarda tuyapman .Biz odamning o'zi uchun uylar, ibodatxonalar va maktablar qurayotganini va ishlab chiqarishda unga yordam beradigan mashinalarni ixtiro qilayotganini ko'ramiz.“Sivilizatsiya tarixi” 1-qism, 5-bet. Abu Al-Qosim Said Al-Andalusiy “Xalq qatlamlari” 65-betga qarang.

<sup>16</sup> “Sivilizatsiya tarixi” muqaddimasi 1-qism, 5-betga qarang.

7. *Geologik omillar;*
8. *Ta'lim-tarbiyaviy omillar.*

**Geografik omillar.** Yomg'ir va suv sivilizatsiya uchun eng muhim omillardan biridir. Suv hayot vositasidir. Hattoki, u hayot uchun quyosh nuridan ham muhimroq bo'lishi mumkin. Tuprog'i oziq-ovqat va minerallarga boy bo'lgan va daryolari boshqalar bilan muloqot qilish yo'li bo'ladigan, qirg'oqlari esa savdo kemalari uchun tabiiy bandargoh bo'lib xizmat qiladigan joylar bilan to'lgan va jahon savdo-sotig'i uchun muhim yo'lda joylashgan mintaqalarda sivilizatsiya gullab yashnaydi. Tropik mamlakatlarning issiqligi va bu mamlakatlarni bosib olgan son-sanoqsiz davlatlar bu yerda sivilizatsiya rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. O'sha mamlakatlarda tushkunlik holati va kasalliklarning hukm surayotgani taraqqiyot va urbanizatsiya sabablarini olish uchun bo'lgan sa'y-harakatlardan chalg'itishi mumkin. Inson uchun san'at, ilm-fan, tafakkur g'ozalligi sohalarida sarflash uchun hech qanday kuch-g'ayrat qoldirmaydi.

**Iqtisodiy omillar.** Sivilizatsiyaning shakllanishida iqtisodiy omillar katta ahamiyatga ega. Arab mamlakatlaridagi badaviy qabilalari kamdan-kam hollarda aql va ziyraklikka ega bo'lishi mumkin. Ko'pincha ularning nomlari jasorat, saxovat, mag'rurlik va adolatparvarlik kabi sifatlarda ko'rindi. Ammo ularda suv va oziq-ovqat manbalarini ta'minlashda iqtisodiy omillarning bo'limgani sababli aql-zakovatlarini bosqinlar, urushlar, ov qilishga sarflashadi. Shuning uchun ham sivilizatsiya, ilm-fan va san'at rivojlanishi uchun hech narsa qolmaydi.

**Madaniy omillar.** Sivilizatsiyaning paydo bo'lishida madaniy omillar har qanday ahamiyatga ega. Masalan, til birligi odamlar o'rtasida fikr va ma'lumot almashish vositasi bo'lishi uchun katta darajada zarur bo'lib, bu sivilizatsiyani mukammallikka olib boradi.

**Diniy omillar.** O'z jamiyatidagi odamlar asosiy ta'limotlar bo'yicha to'liq yoki qisman hamfikrlikka ega bo'lishlari kerak. tabiatdan tashqarida bo'lgan narsaga ishonishning bir jihat; Chunki bu axloqni mehnatning foyda va zarar bosqichidan ishning o'ziga ixlos bosqichiga ko'taradi.

**Axloqiy omillar.** Axloqiy omillarning ham o'ziga xos ahamiyatli tomlari bor. Jamiyatda hukmronlik qiladigan va ularni bir-biriga bog'laydigan axloqiy qadriyatlar bo'lishi kerak, shunda hamma unga rioya qiladigan va hatto ularga qarshi bo'lganlar ham tan oladigan qoidalar bo'ldi. Bu qadriyatlar oila, maktab, masjid yoki boshqa yo'llar orqali topiladi.

**Psixologik omillar.** Sivilizatsiya paydo bo'lishi uchun aniq psixologik omillar mavjud bo'lishi kerak. Misol uchun, odamlar siyosiy tizim tomonidan hukmronlik qilayotganini his qilishlari kerak. Shuningdek, ular o'zlarini qalblarini xotirjam his qilishlari, hayot yo'lida har qadamda o'lim va halokatni kutmasliklari kerak, aks holda bunday jamiyat tashvish, notinchlik va qo'rquv holatida sivilizatsiyani keltirib chiqaradigan sabablarini yo'qqa chiqaradi.

**Geologik omillar.** Geologik omillar sivilizatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sivilizatsiya ba'zi mintaqalarda gullab-yashnashi mumkin, ayni vaqtida, qattiq zilzilalar oqibatida undagi hamma narsani vayron qilishi ham mumkin.



Ta'lim-tarbiya omillari. Bu vosita qanchalik ibtidoiy bo'lmasin, biz ta'lim-tarbiya orqali sivilizatsiyani avloddan-avlodga o'tkazish vositalarini nazarda tutamiz. Biz yoshlardan qabila merosi va ruhini meros qilib olishimiz zarur, shuning uchun biz ularga an'ana, ta'lim va singdirish orqali uning bilimlari, fanlari, san'ati, axloqi va urf-odatlarini o'tkazamiz, tarbiyachi ota bo'ladi, yo ona, yo o'qituvchi yoki rahbar bo'ladimi, buning ahamiyati yo'q.

Agar bu omillar bo'lmasa, ehtimol, ularning bir qismi mavjud bo'lmasa, sivilizatsiya poydevori buziladi. Odamlar sinfiy urushlarga, halokatli inqiloblarga, moliyaviy bankrotlikka, sivilizatsyaning yo'q qilinishiga olib keladigan yoki shunga o'xshash narsalarga duch kelishadi. Agar sivilizatsyaning iqtisodiy omillarida yoki avloddan-avlodga o'tishida jiddiy buzilish sodir bo'lsa, bu uning yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.